



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 6-mart, payshanba,
28 (24.054)-son

O'zbek xalq
maqoli

Vijdondan
kechgan
yiqilar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

BEMORLARNI DAVOLASH EMAS, KASALLIKLARNING OLDINI OLISH ASOSIY MEZON

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi
Adiz Boboyev viloyatdagi tibbiyot
sohasi mas'ullari bilan uchrashuvda
ana shu fikr qayd etildi.

– Tibbiyotga mas'ullarning faoliyati haqida so'rasangiz, qancha bemorni davolagan, nechta murakkab operatsiya qilgani, shifoxonada yangi o'rinlar ochganini gapiradi, – dedi A. Boboyev. – Lekin hech kim qanday kasalliklarning oldi olingani, necha kishi bemorlikdan saqlab qolganini gapirmaydi, aniqrog'i gapirolmaydi. Shuning uchun ham yil sayin kasallar soni ortib bormoqda, nogiron farzandlar tug'ilyapti. Bugungi kunda Samarqand respublikada dori-darmon iste'moli bo'yicha yetakchi o'rinni egallab turganini qanday izohlash mumkin? Davlat shifoxonalari bilan birga xususiy tibbiyot muassasalari ko'paymoqda. Bundan quvonish kerak. Lekin xususiy tibbiyot muassasasida tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun pul to'lash kerak. Odamlarning puli faqat kasallikni davolash, dori-darmon sotib olishga ketishi kerakmi? Ana shu masalalar bugun har bir tibbiyot xodimini o'ylantirishi, o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqishga undashi lozim.

Uchrashuvda sog'liqni saqlash sohasida ijobiy dinamika kuzatilayotganiga qaramay, mavjud kamchiliklarga tezkor yechim topish zarurligi ta'kidlandi. Bog'cha va ta'lim muassasalarida tegishli dasturlarning amalga oshirilishi yoshlarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga xizmat qilish, bu esa o'z navbatida, kasalliklarning kamayishiga olib kelishi qayd etildi.

Tibbiyot xodimlari sohadagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan o'z takliflarini bildirdi. Muassasalar infratuzilmasini modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, xodimlarning malakasini oshirish hamda xorijiy davlatlar tibbiyotidagi ilg'or tajribalarni



qo'llash zarurligi ta'kidlandi.

– Aholining tibbiy madaniyatini oshirish, birlamchi bo'g'inda profilaktika ishlarini kuchaytirish zarur, – dedi Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi direktori Mamatqul Azizov. – Ota-onalarning kundalik hayotda oddiy sanitariya qoidalarga amal qilmasligi, sog'lom ovqatlanish ko'nikmasining yo'qligi bolalarda turli kasalliklar uchrashiga sabab bo'lmoqda. Yoki ona suti bilan oziqlantirilmagligi oqibatida bolaning immuniteti past bo'lishi, tez-tez kasalliklarga chalinishi ham ko'p uchraydigan holat. Biz bu borada hududlarda o'rganishlar ham o'tkazib ko'rdik. Qayerda bolalar ko'proq ona suti bilan katta qilinayotgan bo'lsa, o'sha hudud aholisida kasalliklar boshqa hududlarga nisbatan kam uchradi. Buni aholiga tushuntiraymiz, lekin targ'ibot ishlari yetarli emas.

– O'tgan yil Rossiyada, yaqinda esa Turkiyada bo'lib, tibbiyot sohasi bilan tanishganimizda bir jihat e'tiborimni tortdi, – dedi Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi boshlig'i Ahmadjon Boboyev. – Birlamchi bo'g'inda bo'ladi yoki respublika darajasidagi muassasadami, bemor biror bir tekshiruvdan o'tsa yoki tahlil topshirsa, uning natijasi elektron tizimga kiritiladi va u qaysi klinikaga murojaat qilsa yoki keyinchalik uning salomatligida o'zgarish kuzatilsa, o'sha tashxislarga tayaniladi. Ya'ni, har bir shaxs haqidagi ma'lumotlar elektron bazada mavjud bo'ladi. Biz esa qayta-qayta tekshiruvlar, tahlillar o'tkazib, bunga juda katta mablag' sarflayapmiz. Ana shu tizimni biz ham o'zimizda qo'llashimiz zarur.

Muloqot davomida klinikalar va shifoxonalar ishini optimallashtirish diagnostika va davolash jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligiga to'xtalib o'tildi. Shuningdek, sohaga yosh mutaxassislarni jalb etish va davolash sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kadrlar almashinuvini kamaytirish zarurligi ta'kidlandi.



O'ZIDAN YUTUQLARI KATTA QIZLAR



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bir guruh xotin-qizlar ushbu yuksak mukofot bilan taqdirlandi. Ular orasida viloyatimizdan Anorova Gulhayo Zokir qizi hamda Hamdamova Afro'za Akbarovna ham bor.

**ANOROVA
Gulhayo
Zokir qizi**



Vatanparvar mahallasida kompleks ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodim.

1998-yilda Oqdaryo tumanida tug'ilgan.

She'riyat bo'yicha faolligi, izlanuvchanligi va tashabbuskorligi bilan e'tibor qozongan tuman, viloyat, respublika va xalqaro darajadagi she'riyat tanlovlarida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

2018-yilda O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi yosh ijodkorlar kengashi tomonidan o'tkazilgan «Samarqand she'r oqshomlari» turkiy tili yoshlar anjumanida faol qatnashib, sertifikat bilan taqdirlangan.

«Zomin» respublika yosh ijodkorlari seminarini ishtirokchisi. Qozog'iston respublikasida she'riyat yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan anjumanda «Altinsarin belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

2022-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan «Aks-sado» nomli she'riy kitobi chop etilgan.

O'tgan yili «Akademnashr» nashriyotining «Izlam» rukni ostida «Avron» nomli she'riy kitobi nashr etildi.

**HAMDAMOVA
Afro'za
Akbarovna**



Samarqand shahar 42-umumiy o'rta ta'lim maktabi 9-sinf o'quvchisi.

2009-yil Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida tug'ilgan.

Sportning shaxmat turi bilan professional darajada shug'ullanib keladi. Samarqand shahar «AFRO'ZA» shaxmat klubi a'zosi. Shaxmat bo'yicha FIDE sport ustozligiga nomzodlikni 2017-yilda, FIDE sport ustasi darajasini 2022-yilda, ayollar o'rtasida xalqaro sport ustasi unvonini 2024-yilda qo'lga kiritgan. Yoshlar o'rtasida 20 karra O'zbekiston, 15 karra Osiyo, 2 karra jahon chempioni.

2022-yilda Hindistonning Chennay shahrida o'tkazilgan 44-butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston ayollari milliy terma jamoasi a'zosi sifatida qatnashib, yuqori natijalarni ko'rsatgani uchun «Kelajak bunyodkori» medali bilan taqdirlangan.

2024-yilda Braziliyaning Florinopolis shahrida o'tkazilgan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida 16 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida birinchi o'rinni egallab, o'zbekistonlik xotin-qizlar orasida ikki karra jahon chempioni bo'lib tarixga kirdi.

Hamdamova Afro'za Akbarovna - shaxmatning asosiy - standart yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston ayollari o'rtasidagi birinchi va hozircha yagona jahon chempioni hisoblanadi.

SAMARQANDLIK 5 NAFAR FAOL AYOL DAVLAT MUKOFOTIGA SAZOVOR BO'LDI

Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga ko'ra, bir guruh fidoyi, tashabbuskor ayollar davlatimizning orden va medallari bilan taqdirlandi. Mukofotlanganlar orasida viloyatimizdan quyidagilar bor:

«DO'STLIK» ordeni bilan

Mamadiyorova Nasibali Ablakulovna - Bulung'ur tumani hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i.

Minayeva Gulnora Akramovna - «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyatining «O'zvagonta'mir» aksiyadorlik jamiyati Samarqand vagon deposi sex katta ustasi.

II darajali «SOG'LOM AVLOD UCHUN» ordeni bilan

Sultonova Dilshoda Namozovna - Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining san'at kafedrasini professori.

«SODIQ XIZMATLARI UCHUN» medali bilan

Tursunova Navbahor Eshmurodovna - Jomboy tumanlararo iqtisodiy sudining raisi.

«SHUHRAT» medali bilan

Yorqulova Marziya Fayziyevna - Paxtachi tumani «Urganji» mahalla fuqarolar yig'inidagi kutubxonahabari.

Mamlakatimizda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda.

Mahalla institutining maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib, bu borada ishlar yangicha ma'no-mazmun kasb etdi. Zotan, endi davlatning ijtimoiy siyosati shahar yoki tumandan emas, balki mahalladan boshlanadi.

Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i Sherali YO'LDOSHEV bilan suhbatimiz mahalla instituti faoliyatining huquqiy asoslari, bu borada kuzatilayotgan o'zgarish va yangiliklar xususida bo'ldi.

Oxirgi yetti yilda mahalla institutini takomillashtirish davlatning diqqat e'tibori-

MAHALLA RAISI KECHAGI OQSOQOL EMAS

da bo'lib, 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, - deydi Sh.Yo'ldoshev. - Yaqinda «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun bilan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi va «Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida»gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Negaki fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish, shuningdek, bo'shab qolgan o'rinlarga saylangan fuqarolar yig'inlari raislari faoliyati kafolatlarini mustahkamlash zarurati yuzaga kelgandi.

- Sherali aka, «Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida»gi Qonunda rais lavozimiga nomzodlar bilan bog'liq talablar orasida oliy ma'lumotga ega bo'lishi ham qayd etilgan. Savol tug'iladi, oliy ma'lumotli bo'lish shartmi? Nomzodlar asosan, tadbirkorlik sohasida katta yutuqlarga erishgan va tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori bo'lsa, yetarli emasmi?



- Avvalo, bir jihatni hisobga olishimiz shart. Qonunga ko'ra, raislikka nomzodlarni tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda ishchi guruh tanlaydi.

Nomzodlarga qo'yiladigan talablarga kelsak, ular avvalo, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, bevosita saylovga qadar

kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo'lishi lozim. Albatta, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli bo'lishi kerak. Yana qaytaraman, bu qoida tariqasida. Lekin bugun mahallada hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, soliq va profilaktika inspektorlari ishlaydi. Ularning har biri oliy ma'lumotli mutaxassislar sanaladi. Amaldagi tartib bo'yicha mahalla raisi ularni nazorat qiladi, ishini muvofiqlashtiradi. Demak, yuqoridagi davlat tashkiloti xodimlari oliy ma'lumotli bo'lgandan keyin mahalla raisi ularning xizmat faoliyatini chuqur tushunadigan, barcha sohada olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini teran anglagan shaxs bo'lishi kerak emasmi?!

- Bu tushunarli. Lekin amaldagi raisning diplomi yo'q, biroq yetarlicha yutuqlarga erishgan, tashabbuskor, tashkilotchi bo'lsa-chi?

- O'rinni savol. Bugun raislar orasida mahalla ishini to'g'ri tushunadigan, odamlar bilan ishlash ko'nikmasi va tajribasiga ega, tashabbuskor, mahallaning boshini qo-

vushirayotganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shu o'rinda bir narsani qayd etish o'rinni, mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishga oid islohotlar natijasida «mahalla yetiligi»ga aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiyalarni ajratish vakolati bilan birga ushbu yordamlarning maqsadli va manzilli yo'naltirilishiga mas'ullik va javobgarlik ham yuklandi. Natijada mahalla har bir oila, har bir inson muammosi, dardu tashvishiga chuqur kirib bora oladigan xalqchil tuzilma sifatida yanada faollashyapti.

«Mahalla yetiligi»ning umumiy rahbari sifatida mahalla raislarining mas'uliyati oshirilayotgan bir vaqtda ularning vakolati muddatining qisqaligi, o'z bilim va tajribasini amaliyotda qo'llashi, belgilangan rejalarini to'la va sifatli amalga oshirishi uchun yetarli emasligi sezilayotgan edi.

Shu bois fuqarolar yig'ini raisining vakolati muddati uch yildan besh yilga uzaytirildi. Lekin yuqorida aytganimgiday, raislikka nomzodlarni o'sha hudud aholisi o'zaro kelishib ko'rsatadi. Qonundagi bu norma o'zgarigani yo'q.

(Davomi 2-sahifada) >>>

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- Saylov bilan bog'liq normalardagi o'zgarishlar yaxshi albatta. Lekin ularning faoliyati bilan bog'liq yangiliklar kuzatilmayotgandek? Negaki ayrim mahalla raislarining ko'p vazifalar berilyapti, lekin yuklatilayotgan mas'uliyatni uddalashga imkon yo'q, degan gap-so'zlar quloqqa chalinadi.

Shunga javob o'laroq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hududda o'sish-o'zgarish qilishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida to'xtalib o'tsangiz.

- Savolingizga javob berishdan oldin bir gapni aytib o'tishim kerak. Har qanday holatda ham nolish mumkin.

Lekin bugun mahallaga katta va keng imkoniyatlar berilayotganini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Birgina mahalla budjetini olib ko'raylik. O'tgan yili ayni shu yo'nalishda viloyat bo'yicha fuqarolar yig'inlari 53 milliard so'm mablag'ga ega bo'ldi. Ya'ni, shuncha mablag'ni o'zlari tasarruf qilishdi.

Bundan tashqari, mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi, Ochiq budget tani, "Obod xonadon - obod ko'cha - obod mahalla" dasturi - bularning barchasi joylarda infratuzilmani rivojlantirish, hududlarni obod qilishga xizmat qilyapti.

Shu o'rinda yana bir aniq raqamni aytib o'tish mumkin. Viloyat bo'yicha 101 ta og'ir toifadagi mahalla ro'yxati shakllantirilgan. Ularga yil davomida 3 trillion so'm mablag' kirib boradi. Demak, har bitta mahalla hududida o'rta 3 milliard so'mlik bunyodkorlik tadbirlari amalga oshiriladi.

Ya'ni, bugungi mahalla raisi kechagi oqsoqol emas. Negaki bugun islohotlarning barchasi mahalla kesimida amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, rais o'z hududida ularning ijrosini ta'minlashga asosiy mas'ul shaxs. U haqiqiy yetakchi bo'lsa, tashabbuskorlik qobiliyatini,

MAHALLA RAISI kechagi oqsoqol emas

rahbarlik iqtidorini namoyon qilsa, hududda hech bir muammoga o'rin qolmaydi.

- Demak, mahalla raisligiga saylovlar qizg'in kurashlarga boy bo'ladi. Tabiiyki, yangicha sharoitda o'tadigan bu galgi saylovlar avvalgilardan tubdan farq qilishi shubhasiz.

- Albatta, yuqorida ham fuqarolar yig'ini raisi sayloviga oid qator o'zgartishlar kiritildi, deb aytdim. Xususan, yangi saylanadigan mahalla raisi to'liq besh yil muddatga saylanadi.

Mahallalar raislari saylovi oxirgi marta 2022-yil may oyida o'tkazilgan bo'lsa, shu kunga qadar 200 dan ortiq mahalla raisining vakolati turli sabablarga ko'ra muddatidan avval tugatilgan. Mahallalar raislarining qo'nimsizligi aholining e'tirozlariga hamda hududda aniq reja asosida ishlar olib borilmasligiga olib kelayotgan edi.

Bundan tashqari, Oliy Majlis Senati Kengashining mahalla raisi saylovlari tashkil-lashtirishga oid vakolatlari nomarkazlashtirildi. Endi mahalla raisi saylovini o'tkazish muddatlarini belgilash, shuningdek, saylovga tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish muddatlari va tartibini belgilash bo'yicha Senat Kengashining vakolatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga o'tkazildi.



Shu norma asosida xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi sessiyasida mahallalar raislari saylovini qachon o'tkazish va u bilan bog'liq tadbirlarga doir chora-tadbirlar belgilandi. Kengash raisi Shuhrat Negmatov boshchiligidagi 25 kishidan iborat fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi viloyat komissiyasi tarkibi tasdiqlandi.

- Viloyatda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tgan galgi saylovdan beri 200 dan ortiq mahalla raislarining vakolati muddatidan oldin

tugatilgan, deyapsiz. Ularga saylangan raislarning ko'pchiligi ish boshlaganiga 3 yil bo'lmagan tabiiy. Bunday holatda qanday yo'l tutiladi?

- Birinchidan, bugungi kunga qadar bo'shab qolgan o'rinlarga saylangan mahalla raislari o'z vakolatlari 3 yillik muddat tugaguniga qadar amalga oshirishi belgilab qo'yildi. Bu bo'shab qolgan o'rinlarga saylangan mahalla raislari tegishli hududdagi vakolatlari to'liq vakolat muddati doirasida amalga oshirish imkonini beradi.

Umuman, fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlariga saylov haqida gap ketganda, mahallalar raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalar vakolatlari aniqlashtirilganini ham qayd etib o'tish lozim.

Negaki endi fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi respublika komissiyasi tuzish amaliyotiga barham berildi. O'z navbatida, viloyat hamda shahar, tuman darajasidagi fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalarning vakolatlari alohida-alohida belgilanib, vazifalarining chegaralari aniqlashtirildi.

Xususan, fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi viloyat komissiyasiga fuqarolar yig'inlari raislari saylovini tashkil etish va o'tkazish, shahar, tuman komissiyalari faoliyatini muvofiqlashtirish, fuqarolar yig'inlari raislari sayloviga doir hujjatlar, shuningdek, byulletenlarning namunalari va shakllarini tasdiqlash vakolati berildi.

Viloyat komissiyasi, shuningdek, saylov yakunlari to'g'risida axborotni umumlashtirib, uni keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazadi hamda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqadi.

Tartib bo'yicha 10-martga qadar mahalla raisi saylovi o'tkaziladigan manzil va obyektlar aniqlanib, ro'yxati shakllantiriladi. O'z navbatida o'sha mahallalarda fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) chaqirilib, navbatdagi ishlar yo'lga qo'yiladi.

- Demak, bugundan mahalla raisi saylovining aniq muddatlari haqida gapirish mumkin, shundaymi?

- Albatta, may-iyun oylarida o'tkaziladigan saylov jarayonlari va ungacha bo'lgan vaqt oraliqida amalga oshiriladigan bosqichma-bosqich ishlar aniq belgilab olinan.



Yoqubjon MARQAYEV
suhbatlashdi.

DEPUTAT SO'ROVI – XALQ SO'ROVI

Xalq deputatlari shahar Kengashiga deputat etib saylangan kunimdan boshlab, zimmandagi mas'uliyatga munosib ish olib borishga qat'iy bel bog'ladim. Deputatligimning ilk kunlaridan 17-So'lim saylov okrugi hududidagi muammolarni o'rgandim.

Jumladan, Navro'z mahallasi hududida xonadonlar sonining ortishi natijasida mavjud elektr transformator quvvati yetmay qolgan, uni yuqori quvvatli bilan almashtirish zarur. Shuningdek, 2 ta yangi transformatorga ehtiyoj bor. Hududga olib kelingan 1 ta yangi transformator noma'lum sabablarga ko'ra markaziy tarmoqqa ulanmayapti.

Shahar elektr tarmoqlari korxonasi rahbariga shu xususda, shuningdek, Chilquduq mahallasidagi 6 ta, Yoshlik mahallasidagi 2 ta transformatorni almashtirish zarurligi, 2 dona yangi transformator o'rnatish kerakligi hamda ushbu ikki mahalladagi 270 ta, Yangiqo'rg'on mahallasining Gumbaz ko'chasidagi 10 ta simyog'ochni almashtirish bo'yicha deputatlik so'rovi yubordim.

Tashkilot rahbari imzolagan javob xatida mutasaddilar tomonidan masala o'rganilganligi hamda belgilangan muddatlarda ijobiy hal etilishi ma'lum qilingan.

Deputatning vazifasi joylardagi muammolarni o'rganish, aholini qiynab kelayotgan masalalarni mas'ullarga yetkazish orqali ularga ijobiy yechim topishdan iborat. Ammo ayrim tashkilotlarning mas'ullari so'rovlarni jiddiy qabul qilmayotganligi, siyosiy mas'uliyat yo'qligi kishini taajjubga soladi.

Misol uchun, viloyat transport boshqarmasi boshlig'iga «So'lim shaharchasi — Ulug'bek shohbekati» yo'nalishidagi 80, «So'lim shaharchasi — Temiryo'l vokzali» yo'nalishidagi 5-raqamli avtobus yo'nalishlarini qayta tiklash, mavjud 31-avtobus yo'nalishini 2 kilometr ga uzaytirib, «So'lim 2» mahalla hududini qamrab olib, aholiga qulaylik yaratish xususida deputatlik so'rovi jo'natdim. Shuningdek, so'rovda 17-avtobus yo'nalishini «Avtomobil ehtiyot qismlari» bozoriga uza-yaytirish masalasi ham qayd etilgan edi.

Viloyat transport boshqarmasi boshlig'i R.Tojiyevdan kelgan javob xatida bosh rejaga muvofiq Samarqand shahri, So'lim shaharchasi orqali 17-raqamli «So'lim shaharchasi — Ehtiyot qismlari bozori — Samarqand tola» yo'nalishini tashkil etilishi aytilgan. Biroq tugatilgan 80, 5-avtobus yo'nalishlari haqida hech qanday ma'lumot berilmagan.

Savol tug'iladi, bunday mutasaddilar davlat rahbarining «deputat so'rovi xalq so'rovi sifatida ko'rinish shart», «deputatga bepisanlik — xalqqa bepisanlik» degan talabi borligini bilarmikan?

Shahar hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Y.Bobonazarovga Navro'z va Chilquduq mahallalaridagi yo'llarni ta'mirlash, Sartepa mahallasidagi 300 metr yo'lga asfalt yotqizish hamda Yangiqo'rg'on mahallasi hududidagi ichki ko'chalarni ta'mirlash bilan bog'liq so'rov jo'natdim.

Afsuski, ushbu so'rovim javobsiz qolmoqda.

To'g'ri, amaldagi qonunchilikda bunday holatda qanday harakat qilish kerakligi ham aniq ko'rsatilgan. Zotan, deputat so'rovini ko'rib chiqishda qonunbuzarlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Albatta, bu bilan kimgadir qonun kuchini ko'rsatish fikridan yiroqimiz. Mahallalarda o'tkazilgan uchrashuvlarimizda asosiy murojaatlar yo'llarning ta'mirlanish, kommunal sohadagi masalalar, ishsizlik muammolaridan iborat bo'lmoqda. Demak, ushbu sohalarida yillar davomidagi e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik oqibatida ko'plab muammolar yig'ilib qolgan. Ularni tezkorlik bilan hal etish undan mushkulroq muammolar yuzaga kelishini oldini oladi.

Muborak HOSILOVA,
xalq deputatlari
Samarqand shahar
Kengashi deputati.

Tabiatni muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solish borasida keng ko'lamli ishlar boshlandi. Jumladan, chiqindi yig'ish, tashish va ularni qayta ishlash borasida ekologik nazorat kuchaytirilgan. «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili» Davlat dasturida maishiy chiqindilarni joylashtirish, saqlash, utilitatsiya qilish, zararsizlantirish xizmatining tashkil etilishi va hududlardagi chiqindi poligonlarining holatini yaxshilash belgilangan. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash borasida qator vazifalar qayd etilib, chiqindi poligonlarini 20 foizga qisqartirish ham ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning 2023-yil 31-maydagi farmoniga muvofiq, «Toza hudud» davlat unitar korxonalari va obodonlashtirish boshqarmalariga tegishli qattiq maishiy chiqindi poligonlari har bir viloyatda yangidan tashkil etilgan «Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi» davlat muassasalariga o'tkazilgan. Bu borada davlat nazorati olib borilib, hokimlik va mahallalar bilan hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilitatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizim yaratilmoqda.

Bugungi kunda chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi viloyat hududiy boshqarmasiga qarashli 15 ta maishiy, Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlarida qurilish, Nurobod tumanining Sazag'on mahallasi hududida esa zaharli va toksik moddalar chiqindilari poligoni faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

- Shu kungacha viloyatdagi chiqindi tashish bilan shug'ullanuvchi 50 dan ortiq korxonaga va tashkilot bilan o'zaro shartnomalar imzolaganimiz, - deydi chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi viloyat hududiy boshqarmasi bo'lim boshlig'i Sherzod Egammurodov. - Ular tomonidan poligonlarga kuniga 1,5 ming tonnadan ziyod maishiy va qurilish chiqindilari



tashib keltirilmoqda. Ayni vaqtda Jomboy va Ishtixon tumanlaridagi chiqindi poligonlarida rekultivatsiya ishlari yakuniga yetkazildi. Maydonlar to'liq qolganligi sababli ular o'z faoliyatini to'xtatdi. Jomboy tumanida yig'ilgan chiqindilar esa hozircha Bulung'urdagi poligonga tashib borilmoqda.

«Maroqand obod» DUK Samarqand shahri

CHIQINDI QAYTA ISHLANADIMI?

BU BORADA YANGI BOSHQARMA
NIMA ISH QILYAPTI?



va tumanidan, «Toza hudud» DUK, «Anvarjon biznes» MChJ Kattaqo'rg'on va Narpay tumanlaridan, «Mansurbek servis» MChJ, Paxtachi tumani, «Gold Marjonabegim» MChJ Nurobod tumanidan, «Kattaqo'rg'on obod servis» MChJ Kattaqo'rg'on shahrida to'plangan chiqindilarni tegishli poligonlarga tashib kelsa, qolgan tumanlarda faoliyat ko'rsatayotgan «Toza hudud» DUK filiallari aholiga chiqindi tashish xizmatini ko'rsatmoqda.

Biroq birorta poligonda chiqindilarni saralash ishlari yo'lga qo'yilmagan. Faqatgina «Anvarjon biznes» MChJ va «Mansurbek servis» MChJ tomonidan temir, qog'oz, plastmassa, shisha kabi mahsulotlarni saralab, qayta ishlash tashkil etilgan, xolos.

- Chiqindi poligonimiz 2,4 gektar maydonda joylashgan bo'lib, ayni vaqtda to'liq qolganligi sababli o'z faoliyatini to'xtatdi, - deydi Ishtixon tumani chiqindi poligoni boshlig'i Zopir Murodov. - Ko'p yillardan buyon chiqindilarni saralash ishlari olib borilmasdan yerga ko'mib yuborilavergan. Tumanning Bo'ston mahallasi hududidagi tashlandiq maydonda yangi poligon tashkil etish ishlarini olib boryapmiz.

O'tgan yili 300 million tonnaga yaqin qattiq maishiy chiqindilar chiqindi poligonlariga joylashtirildi, - deydi Sherzod Egammurodov. - Xususan, 15 ta qattiq maishiy chiqindi poligoni tartibga keltirildi. Bundan tashqari, 2 ta qattiq maishiy chiqindi poligoni rekultivatsiya qilinib, faoliyati to'xtatildi. Direksiya balansidagi 30 ta maxsus texnika yordamida chiqindi poligonlari

doimiy ravishda tartibga keltirilmoqda.

Viloyatda chiqindi poligonlarini tartibga keltirib, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash borasida amaliy harakatlar davom etmoqda. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining «Shang-hai SUS Environment» kompaniyasi loyihasiga ko'ra, 2025-2026-yillarda viloyatimizda maishiy chiqindilarni termik usulda utilitatsiya qilib, elektr energiyasi va turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zavod quriladi. Umumiy qiymati 155 million dollarni tashkil qiladigan loyihaning, amalga oshirilishi natijasida 6 gektar maydonda barpo etilgan zavodda yiliga 500 ming tonnadan ziyod chiqindi yoqilib, uning atrof-muhitga ta'siri kamaytiriladi va 240 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Chiqindi poligonlari 50 foizga qisqaradi, 15 ming xonadon elektr energiyasi bilan ta'minlanadi, shuningdek, 150 ta qo'shimcha ish o'rni yaratiladi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, sohada yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilishi mamlakatimizda chiqindilarni boshqarish sohasida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish hisobiga ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, sanitar holatni yaxshilash, aholiga xavfli kasalliklar yuqishini kamaytirishga hissa qo'shadi. Qolaversa, chiqindilarning qayta ishlalishi tabiiy resurslarni tejash, muqobil energiya, xomashyo va organik o'g'it olinishi, mavjud chiqindi poligonlari hududida ekossanoat zonalarini tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Viloyatda ayrim chiqindi poligonlarining atrofi to'liq o'rab olinmagan. Chiqindilarni utilitatsiya qilish ishlari talab darajasida emas. Hozircha faqat Kattaqo'rg'on shahri, Ishtixon, Bulung'ur va Urgut tumanlarida avtotarozi va kuzatuv kameralari o'rnatilgan, xolos.

Yangi tashkil etilgan chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi viloyat hududiy boshqarmasi oldida katta vazifalar turibdi. Chiqindilarni turiga qarab ajratib yig'ish, ko'cha va maydonlarda chiqindilar uchun maxsus konteynerlar o'rnatish, aholi orasida chiqindilarni ajratish va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish borasida ko'p ishlar qilish lozim. Zero, sohani rivojlantirish atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy samaradorlik va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.



Dilmurod TO'XTAYEV,
«Zarafshon» muxbiri.



BEGONA O'TDAN QUTULISH YO'LI

Yoxud "Reklama to'g'risida"gi Qonun talablari nega bajarilmayapti?

Ushbu maqola begona o't haqida emas, reklama faoliyati, aniqrog'i, bu faoliyatdagi qonunbuzarlik holatlarini bartaraf etish haqida.

Begona o'tni misol qilganimiz sababi shuki, uning ildizi quritilmasa, yana o'sib chiqishida. Xuddi shu kabi noto'g'ri reklama tayyorlashning oldi olinmasa, reklama faoliyatidagi qoidabuzarliklarni bartaraf etish qiyin.

"Reklama to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, O'zbekistonda reklama davlat tilida berilishi shart. Reklamani boshqa tilda qayd etish zarurati bo'lsa, mazkur qonunning 6-moddasida "Tashqi reklama orqali joylashtiriladigan reklamani boshqa tillardagi tarjimai matni O'zbekiston Respublikasi davlat tilidagi reklama matnining pastki qismida horizontal holda joylashtirilishi va umumiy reklama maydonining qirq foizidan oshmasligi kerak"ligi belgilangan.

Ko'chalardagi reklamalar e'tibor bersak, ba'zilarida davlat tili umuman ishlatilmagan. Boshqa tilda berilgan yozuv reklama maydonini to'liq egallaganini esa "qonunning namoyishkorona buzilishi", deyish mumkin. Reklama bo'yicha qonunchilik ijrosini ta'minlash "Reklama to'g'risida"gi Qonunda Respublika Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligiga yuklatilgan bo'lib, u reklama to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash masalalari bo'yicha tushuntirishlar berishi kerak.

Bu vazifa qanday bajarilayapti? Joylarda agentlikning vakillari reklama tarqatuvchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bilan ma'lum vaqtlarda ish olib boryapti, desak to'g'ri bo'ladi. Qonun buzilishiga asosiy sababchi bo'lgan, ya'ni reklamani qonun talablariga rioya etmasdan tayyorlayotgan xo'jalik subyektlari nazoratdan chetda

qolmoqda. Agar reklama faoliyatida asosan uch tomon – reklama tayyorlovchi, reklama tarqatuvchi va reklamadan foydalanuvchi ishtirok etishini nazarda tutsak, reklama tayyorlagan chetda qolib, zararni reklama tarqatuvchi bilan reklamadan foydalanuvchi ko'rmoqda. Chunki reklama talabi buzilgani uchun reklama tarqatuvchi javobgarlikka tortilmoqda. Ayni vaqtda davlat tili qonuni buzilgani uchun jamiyat va davlatga ma'naviy zarar yetkazilmoqda.

Viloyat hokimligi yig'ilishida "Reklama to'g'risida"gi Qonun ijrosi haqidagi masala ko'rib chiqilib, bu boradagi ahvolda tanqidiy baho berildi va Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining viloyat bo'limiga qonunbuzilish holatlarining oldini olish topshirig'i berildi. Agar agentlikning viloyat bo'limida yigirmaga yaqin xodim ishlashini e'tiborga olsak, viloyatdagi o'n mingdan ziyod tadbirkorning reklamalarini nazorat qilib borish qiyin ekanini ma'lum bo'ladi. Chunki birgina Samarqand shahrida mingga yaqin katta ko'cha bor. 65 ta markaziy ko'chalarda joylashgan binolardagi reklamalarni tartibga keltirish ham oson bo'lmaydi.

Yo'li bitta – kechiktirmasdan reklama tayyorlovchilarga reklama to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash bo'yicha tushuntirish berish kerak. Toki ular reklama davlat tilida bo'lishi lozim, degan talabni anglab yetishmas ekan, ular bu borada javobgarlik mas'uliyatini his qilmaydi.

Reklamada davlat tili haqidagi qonunning bajarilishi reklama tayyorlanishi jarayonidan boshlanishi kerak. Aks holda, bu muammo davom etaveradi. Xuddi ildizi yulimay qolgan begona o't yana o'sib chiqqani kabi.

Xurshid NURULLAYEV.

2025-yil 21-fevralda Prezidentimizning "Uy-joy va ipoteka bozorini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra, ipoteka kreditlari uchun subsidiya olishga arizalar qabuli 2025-yil 3-martdan boshlandi.

Arizalarni Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali topshirish mumkin. Bunda ariza beruvchi xohishi bilan uning daromadlari hisob-kitobiga yaqin qarindoshlarining ham daromadlari kiritilishi mumkin. Shuningdek, arizachi yoki uning turmush o'rtog'ining (shu jumladan, kafil sifatida keltirgan yaqin qarindoshlari) o'rtacha daromadi quyidagicha bo'lishi kerak:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda - mehnatga haq

Ipoteka kreditlari uchun subsidiyaga ariza qabuli boshlandi

to'lashning eng kam miqdorining 2,7 baravaridan 8 baravarigacha (hozirda 3,11 million - 9,24 million so'm);

- Toshkent shahrida - mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,7-9,2 baravari (hozirda 3,11 million so'm - 10,62 million so'm).

Ariza beruvchida, shu jumladan, uning turmush o'rtog'ining nomida respublikaning barcha hududlari miqyosida mulk huquqi bilan turarjoy mavjud bo'lmisligi lozim.

Parametr doirasida ipoteka kreditlari bo'yicha subsidiyalar ajratish yuzasidan arizalar 2025-yi 1-noyabrga qadar qabul qilinadi.



Shohruh ESHQUVATOV, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Dukkakli don ekinlaridan no'xat aholi va chorva mollari uchun zarur bo'lgan oqsil muammosini hal etishda muhim ahamiyatga ega. No'xat doni va poyasi tarkibida oqsil miqdorining ko'pligi bilan boshqa donli ekinlardan farq qiladi. Almashlab ekishda eng yaxshi o'tmishdosh ekinlar jumlasiga kiradi.

No'xat yetishtirishda nimalar muhim?

Dunyo aholisining yildan-yilga ko'payishi oqsilga boy bo'lgan dukkakli don mahsulotlariga bo'lgan talabning ham oshishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda no'xatning sug'oriladigan yerlarda ekish uchun "Polvon", "Zumrad" navlari hamda lalmikor yerlar uchun "Yulduz", "Lazzat", "Umid", "O'zbekiston-32", "Halima", "Malxotra" va "Jahongir" navlari tavsiya etilgan. Bundan tashqari, respublikamizda Amerika, Turkiya, Eron, Meksika va Rossiyadan keltirilgan no'xat urug'laridan ham foydalanib kelinmoqda.

Respublikamizdagi fermer va dehqon xo'jaliklari, agroklasterlar hamda aholi tomonidan no'xat yetishtirishda bir qancha muammolarga duch kelib, yetishtirilayotgan no'xat ekinidan yuqori va sifatli hosil olishga qiyinlanmoqda. Shunday ekan, no'xat yetishtirishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligiga to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, ekish muddati va me'yoriga amal qilish lozim. No'xat urug'ini ekish muddati tuproqning mexanik tarkibiga va ob-havo sharoitiga bog'liq holda tuproqning yetilishi bilan olib boriladi. Lalmikor maydonlarning qir-adirlik mintaqalarida ko'klamning kelishiga qarab, fevral oyining birinchi o'n kunligida, tog' oldi va tog'li mintaqalarida esa fevral oyining uchinchi o'n kunligi va martning birinchi o'n kunligida ekish eng maqbul muddat hisoblanadi.

Respublikamiz mintaqalari joylashganligiga qarab, no'xatning mayda urug'li navlarini gektariga 50-60 kilogramm, yirik urug'li navlarini 70-100 kilogramm etib belgilash lozim. Ekish chuqurligi mexanik tarkibiga qarab,



yangil qumoqli tuproqlarda 4-5 santimetr, og'ir tarkibli tuproqlarda 5-6 santimetr atrofida olib borilsa, maysalarning bir tekis unib chiqishiga zamin yaratiladi. Bunda qator oralari 60 santimetr etib belgilanadi.

Ikkinchidan, o'g'itlashni to'g'ri tashkil qilish. No'xat boshqa dukkakli ekinlar qatori fosforiga talabchanligi sababli ekish oldidan yoki ekish bilan birgalikda gektariga 30-40 kilogramm sof holda fosforli o'g'itlar beriladi. Tuproqning gumus (chirindi) miqdori kam bo'lgan unumdorligi past maydonlarda gektariga 30-40 kilogramm sof holda azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish hosildorlikni oshirish imkonini beradi.

Aprel va may oylarida paydo bo'ladigan ko'p yillik boshqa begona o'tlarni yo'qotish uchun no'xatning qator oralari kultivator yoki qo'l kuchi yordamida ishlov beriladi.

O'simlikni sug'orish ishlari tuproqning mexanik tarkibiga qarab ikki va uch marotaba o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Zarif BOBOQULOV, Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti dotsenti.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJIRAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Ibragimova Lyusya Araratovnaga (2020-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Akramov Nurillo Bozorovichga (2024-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjavev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Akramov Nurillo Bozorovichga (2024-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Mahramov Erkin Mahramovichga (2024-yil 6-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Faziov Abdalim Axatovichga (2025-yil 8-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Xolmatov Baxtiyor Napasovichga (2019-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev

Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Togayev Muxiddin Maxamatovichga (2024-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Tuliyev Bazarga (2021-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Nikolashin Vladimir Pavlovichga (2021-yil 27-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Muxtarov Abdurafik

TABRIKLAYMAN!

Samarqand tuman FXDY bo'limi xodimalarini ko'p yillardan beri taniyman. Ular sohadagi ko'p yillik tajribasi, fidoyiligi bilan xalq orasida hurmat qozongan. Bo'limga kelgan har bir fuqarodan o'zining maslahati, yordamini ayamaydi.

Samarqand tumani FXDY bo'limi xodimalari Shohida Nurullayeva, Sitorabonu Rashidova, Hilola Shamsiyeva, Ozoda Tosheva, Feruzabonu Mirzaboyeva va boshqa xotin-qizlarni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan tabriklayman.

Sizlarga uzoq umr, mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va farzandlaringizning kamolini tilab qolaman. Bahor kayfiyati siz azizlarga, doimo hamroh bo'lsin!

Mo'mina GULYAMOVA.

Numanovichga (2024-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Lutfullayeva Istatga (2023-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektorati va kasaba uyushma qo'mitasi institut jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri

Djamshed AXTAMOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

Qaysidir kafe-barga kirsangiz, albatta, u yerda yoshlarni uchratasiz. Aslida bu joy ular bop tamaddixonasiga emasligini bilamiz, ammo u yerdagi yoshlarning aksariyati talaba. Nima bo'пти, deyishingiz mumkin. Ular ko'p vaqtini ilm va kasb-hunar o'rganish o'rniga ana shunday joylarda o'tkazayapti-da. Qorin to'ydirish yoki chanqog'ini qondirish uchunmas, befoya suhbatlar, telefon va boshqalarga soatlab vaqt sarflaydi. Uyidan chiqayotganda o'qishiga omad tilab, duo qilib kuzatib qo'ygan ota-onalari bolam darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini kutubxonada o'tkazayapti yoki qo'shimcha to'garaklarga qatnayapti, deb o'ylaydi.

"OLTIN DAVR"

bema'ni vaqtixushlik emas

Shunday talabalar borki, o'tayotgan har bir daqiqaning qadriga yetadi. Ular ota-onasi orzusi-dagidek farzand bo'lishni maqsad qilib, darsdan keyin ham o'qib, izlanadi, kasb-hunar o'rganadi. Xo'sh, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasalarida qanday imkoniyatlar bor?

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida yoshlar uchun turli xil to'garaklar tashkil etilgan. Jumladan, "Behbudiy izdoshlari" talabalar teatr studiyasi, "Milliy musiqa cholg'ulari" ansambli, shuningdek, nazm va nasr, musavvirlik, amaliy san'at, dizaynerlik, raqs va boshqa yo'nalishlardagi to'garaklar faoliyat olib boryapti.

Universitetdagi "Shalola" ijodiy to'garagiga o'tgan asrning oltin yillarida adabiyot-shunos olim, professor N.Shukurov asos solgan. To'garakning birinchi sardori O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjondir.

- Barot Boyqobilov, Normurod Narzullayev, Asad Dilmurodov, Faxriyov va boshqa ko'plab iste'dodli ijodkorlarning qalamini chaxxlashga xizmat qilgan to'garak bugun ham faol ish olib boryapti, - deydi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Nodir Rahmatullayev. - Ayni paytda to'garakda 20 dan ortiq yoshlar ishtirok etadi. Mashg'ulotlarda nafaqat filologiya fakulteti, balki universitetning turli yo'nalishlarida, hatto boshqa oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, qolaversa, ularni tamomlab ketgan, ijodga, she'riyatga qiziquvchi yoshlar qatnashib kelmoqda. To'garak a'zolari viloyat va respublika miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etib, tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritib kelyapti. Shahrizod Shodiyev Respublika yosh ijodkorlar seminarida ishtirok etgan bo'lsa, Muyassar Mustafoyeva, Boburjon O'ktamov "Yil talabasi" tanlovida g'olib bo'lgan. Hurriyat O'rmonova va Muyassar Mustafoyeva Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibalari bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, universitet sport klubi qoshida futbol, voleybol, basketbol, shaxmat, stol tennis, yengil atletika, kurash, qo'l to'pi, badminton to'garaklari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Ahamiyatli, bu to'garaklar a'zolarining ko'pchiligi xotin-qizlar.

Universitet yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tomonidan talabalarning sport, madaniyat, fan va innovatsiya, zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli xil tadbirlar, ko'rik-tanlov va seminar-treninglar tashkil qilinadi.

- Talabalar turar joylarida "Zakat", "Mu-nozara", "Zukko kitobxon", "Kvest", "Fast typing" kabi intellektual loyihalar muntazam tashkil etiladi, - deydi universitet yoshlar yetakchisi Allayor Norboev. - "Talabalar ligasi" shaxmat musobaqasi, muddatli harbiy xizmatni o'tagan va "Qalqon" ja-



moatchilik guruhi a'zolari bo'lgan yoshlar ishtirokida sportning "Street workout" turi bo'yicha ittifoq ochiq turniri o'ziga xos o'tadi.

"Qalqon" jamoatchilik guruhi haqida so'z ketganda, shuni qo'shimcha qilish kerakki, guruh a'zolari nafaqat talaba-yoshlar o'rtasida balki mahallalarga bevosita kirib borgan holda maktab o'quvchilari hamda uyushmagan yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish maqsadida turli xil targ'ibot-tashviqot tadbirlarini o'tkazib kelmoqda. O'quvchilarning ta'til davomidagi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida "Yetakchilar karvoni", "Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz" shiori ostida velomarafon, kibersport tadbirlari va boshqa yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Samarqand davlat chet tillar institutida ham talaba-yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy yo'nalishdagi 40 ga yaqin to'garak faoliyat olib boradi. Ularga 4 ming nafardan ziyod talaba qamrab olingan.

- Talabalarimizning katta qismi qizlardan iborat, - deydi ingliz tili fakulteti dekani Begzod Po'latov. - Shuning uchun ham ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan to'garaklardan tashqari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi. Har bir fakultetda xotin-qizlar bilan shug'ullanish uchun bir nafardan ayol o'qituvchi mas'ul qilib biriktirilgan.

Misollarda keltirilgani kabi turli to'garaklar va tadbirlar boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham tashkil etiladi. Yoshlarimiz uchun shunday qo'shimcha imkoniyat yaratilgan ekan, afsuski, ko'pchilik undan oqilona foydalanmaydi. Yoshligini o'yin-kulgi bilan o'tkazgan inson hayotining qolgan qismida qora mehnat bilan shug'ullanishi ehtimoldan xoli emas. Aksincha, ozgina o'zini qiynab, vaqtdan unumli foydalanib ilm o'rgansa, kelgusi hayot yo'li farovon bo'lishi tabiiy. Yana bir gap, talabalikni "oltin davr", deyishadi. Bu vaqtni qanday o'tkazish yoshlarimizning o'ziga, dunyoqarashiga bog'liq. Bu davrdagi bema'ni vaqtixushliklar ularning ko'ziga "oltin"dek ko'rinmasa bo'lgani.

To'liq SIDDIQOV.



XV asr o'zbek mumtoz adabiyotining sarmahsul, rivojlangan davri sifatida tarixda qoldi. Bu davrda Movarounnah va Xurosonda adabiyot yuksalib, uning o'nlab namoyandalari o'z asarlari bilan ma'naviyatimizni boyitdi.

Mavlon Gadoiyning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar manbalarda kam saqlangan. Alisher Navoiyning "Majolisun-nafois" tazkirasida Gadoiy haqida shunday qaydlar bor: «Mavlon Gadoiy – turki-go'ydir, balki mashohirindur. Bir nav'i aytur va aning mashhur matla'laridan biri budurkim:

Ohkim devona ko'nglum muftalo bo'ldi yana,
Bu ko'ngulning ilkidin jong'a balo bo'ldi yana.
Mavlononing yoshi to'qsondin o'tubdur. Bu matla' aningdurkim:

Dilrabo sensiz tiriklik baloyi jon emish,
Kim aning dardi qoshida yuz o'lum hayron emish".

Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Yaqiniy, Yusuf Amiri, Lutfiy kabi turkigo'y shoirilar haqida so'z yuritib, yana Gadoiy to'g'risida shunday yozadi: "Huloguzon zamonidir Sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh Sultonning zamonaning oxirigacha turk tili bila shuaro paydo bo'ldilar. Va ul hazratning avlod va ahfodidin ham xush tab' salotne zuhurg'a keldi: shuaro Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy va Muqimiy (bu o'rinda XV asrda ham Muqimiy taxallusli shoir haqida so'z yuritilmoqda) va Yaqiniy va Yusuf Amiri va Gadoiydeklar".

Shoirning yagona devoni – "Devoni Gado" Parijdagi Milliy kutubxonaning turk qo'lyozmalari bo'limida 981-raqamli inventar ostida saqlanmoqda va uning fotosuxsasi 1968-yilda professor Hamid Sulaymon tomonidan O'zbekistonga keltirilib, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi fondiga topshirilgan.

Mavlon Gadoiyning ijodiy merosi jami 230 g'azal, bosh qismi tushib qolgan bir qasida, bir mustahzod va beshta to'rtlikdan tashkil topgan. O'zbek adabiyoti tarixida g'azallarining so'z san'atkorligi bir davr adabiy muhiti vakillari ijodida ajib naqqoshlik bilan jilolanadi. Mavlon Gadoiy va Mavlon Lutfiy devoni qo'lyozmalari Parij Milliy kutubxonasida 891-inventar raqam ostida saqlanadi. Qo'lyozma devon dunyoda yagona va eng mo'tabar nusxasidir. Ikkala ijodkorning qo'lyozma nusxalari "Devoni Gado" va "Devoni Lutfiy" bilan birga bir muqovada kitob qilingan. Shoir Lutfiyning devoni qo'lyozmaning birinchi qismiga, Gadoiy devoni qo'lyozmaning ikkinchi qismiga joylashgan. Devonlarning bir muqovada birlashtirilishi ko'plab bahslarga sabab bo'lgan. Adabiyotshunos Erkin Ahmadxo'jayev shunday yozadi: "Gadoiyning devoni Lutfiy devoni bilan birga kitobat qilinganligi uchun

Gadoiy va Lutfiy

ijodiy hamkor shoirilar



biz Lutfiy devoniga Gadoiy g'azallaridan kirib qolganmikin degan mulohaza bilan Lutfiyning devonini ham ko'zdan kechirdik. Ammo gumonimiz isbotlanmadi». To'g'ri, Mavlon Gadoiy va Mavlon Lutfiy bir adabiy muhit vakillari hamda ular ijodiy hamkor shoirlardir. Bu haqida Gadoiy shunday yozgan:

Gar inoyat bo'lsa haqdin dag'i sultonin nazar,
Bu Gadodek Lutfiy kim bo'lg'ayki, Salmon bo'lmag'ay.
Lutfiy ijodida esa, bunday talqinni ko'rishimiz mumkin:
Ulug'bekxon bilur Lutfiy kamolin,
Ki rangin she'ri Salmondin qolishmas.

Albatta, bu g'azalda devon haqida fikr bildirilmagan. Ammo adabiy jarayondagi yelkadosh hamfikrlar, bir-biriga musohiblar bo'lganligini anglash mumkin. G'azalda Gadoiy o'zining nochor ahvolini bayon etib, muruvvat kutayotganligini ta'kidlab, Lutfiy va Salmon Sovajiy bilan tenglasha oladigan iste'dod sohibi ekanligini faxriya san'ati asosida yoritadi.

Gadoiy va Lutfiy ijodiy merosini qiyoslasak, bir-biriga o'xshash baytlar – tatabbu' san'ati tarzida ifodalanganining guvohi bo'lamiz. Aytish joizki, baytlarning mazmun bir xillik kasb etishi ikki ijodkorning adabiy aloqalarini ifodalaydi. Qolaversa, davr badiiyati jara-yoni ham, devon tartib berish an'analari ham bunga sabab bo'lgan.

Hafiza ASLANOVA,
dotsent.

VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

Atrofingizdagilarga
e'tibor bering,
hayotda har narsadan
noliydigan kishi
yutganmi yoki
qadamida shukrona
keltiradiganlar?

"Milliy qadriyatlar oyligi" boshlandi

Prezidentimizning 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, har yili mart oyida "Milliy qadriyatlar oyligi" tadbirlari va xalq sayillarini o'tkazish belgilangan.



Ushbu oylik xalqimizning milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, xalq o'yinlarini yo'nalishidagi ijro san'atini targ'ib etishga qaratilgan bo'lib, bu loyiha an'analar, tarix, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni o'zida mujassam etadi.

Oylik doirasida viloyatimizning barcha hududida bir qator tadbir, ko'rik-tanlov va musobaqalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Jumladan, "Milliy qadriyatlar oyligi" tadbirlari va xalq sayillariga boshqarma tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlari, viloyatdagi davlat teatrlari, tuman (shahar) madaniyat bo'limlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, folklor-etnografik xalq jamoalari, ashula va raqs ansambllari, taniqli san'atkorlar, estrada xonandalari, baxshilar, teatr va kino aktyorlari, yozuvchi va shoirilar,

sirk artistlari, raqs jamoalari hamda askiya san'ati ustalari keng jalb qilinadi.

Bunda hududlarda urf-odat va udumlarining mazmun-mohiyati, ahamiyati hamda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xalqimizga yetkazilib, milliy liboslar targ'iboti, badiiy jamoalarning chiqishlari, raqs san'ati namunalari, milliy cholg'uchilik bo'yicha tanlovlar hamda xalq o'yinlari musobaqalari tashkil etiladi. Shuningdek, Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlab aholining keng qatlamlari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, madaniy tadbirlar, muhoqotlar, konsert dasturlari tashkil etiladi.

Orif HAYITOV,
viloyat madaniyat
boshqarmasi boshlig'i.

"Jizmonsoyga avtobus keldi"

2030-yilgacha gazetaga ana shunday sarlavha bilan maqola berishni istayman

So'zlarimga ajablanmang. Men hozirda Samarqand davlat chet tillar instituti xalqaro jurnalistika yo'nalishida tahsil olaman. O'zim aynan Kattaqo'rg'on tumanidagi chekka qishloqlardan biri – Jizmonsoydanman. Shuning uchun ham viloyat markaziga qatnashda biroz qiyinchiliklarga duch kelyapman. "Yo'l azobi – go'r azobi" degan naqlning mohiyatiga tushunib yetyapman.



Gap faqat men haqimda emas, bu yerdan juda ko'p yoshlar boshqa shaharlardagi o'quv yurtlarida ta'lim olishadi. Har qalay Toshkent, Samarqand, Kattaqo'rg'on tumanidagi bozor-o'charga chiqadiganlar, uzoqqa sayohatga boradiganlar ham yo'q emas. Biroq hammamiz bir necha yilki, yo'l qatnovi muammolariga duch kelamiz.

Mahallamiz bilan Samarqand shahri orasidagi masofa 120 kilometrni tashkil etadi. To'g'ri, bu kichkina qishloqqa to'g'ridan-to'g'ri jamoat transporti qo'yish mushkul, mutaxassislar tili bilan aytganda, u o'zini oqlamaydi. Ammo men bu fikrga qo'shilmayman. Samarqand shahrida yangi tizimda elektrobustlar juda uzun masofali marshrutlarda qatnayapti.

Biz qishloqdan Moybuloq qishlog'igacha yo'lovchi taksida kelamiz. Moybuloqdan tuman markaziga, u

Mushtariy mulohazasi



yerdan esa Kattaqo'rg'on shahriga boramiz, ana undan so'ng Samarqandga yo'l olamiz. Muammoning ikkita sababi bor. Birinchisi – yo'llarimizning abgori chiqqan, uncha-buncha haydovchi "Jizmonsoyga" desangiz, yuragi jizillaydi. Ikkinchisi esa na Kattaqo'rg'on tuman markazi – Payshanbadan, na Kattaqo'rg'on shahridan Samarqandga muntazam jamoat transporti qo'yilgan. Ayniqsa, qish va bahor oylarida bizning qishloqqa boruvchi transport vositalari yo'lining yomonligidan taksilari ham kamayib qoladi.

Albatta, bu masala yechimi oson emas. Lekin viloyat va tuman mutasaddi idoralari davlatimiz rahbari berayotgan juda katta iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanib, keyingi yilgi rejalariga ana shu masalani kiritishsa va yo'llarimizni tartibga keltirishsa. O'shanda men maqoladagi sarlavhani qo'yib, "Zarafshon" gazetasiga xabar yozsam. Ana shunday ezgu niyat bilan:

Marjona KUNUZQOVA.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 471 nusxada chop etildi. Buyurtma 114. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

